

2-TOM, 6-SON

KICHIK VA O'RTA BIZNESNI KREDITLASHNING IQTISODIYOTDAGI O'RNI

**Nazirov Ibrohimjon Sodiqjon o'g'li**

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti magistranti

**ANNOTATSIYA:**

Kichik va o'rta biznes sub'ektlarini kreditlashni takomillashtirish va mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni hamda uni aholini ish bilan ta'minlashda eng muhim soha ekanligi keltirib o'tilgan. Shuningdek, kichik va o'rta biznesning bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik va o'rta biznes sub'ektlari, kredit, statistik ko'rsatkichlar, jamg'arma, kredit foizi, kompensatsiya, kredit liniyalari.

**KIRISH**

Hozir kunda kichik va o'rta biznes korxonalarini iqtisodiy o'sish ortishiga va ishsizlik, qashshoqlik kabi o'tkir ijtimoiy muammolarning birlamchi yechimlaridan biriga aylandi va bu iqtisodiyot uchun muhim yo'nalishlardan biriga aylanmoqda.

Kichik va o'rta biznes faoliyatini rivojlantirishda an'anaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligi ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan kichik va o'rta biznes rivojidagi o'zgarishlar, biznes-jarayonlar va biznesmodellarning o'zgarishi kabilar hozirda har qachongidan ham dolzarbdir. Ushbu maqolada kichik va o'rta biznes faoliyatini kreditlashning iqtisodiyotdagi o'rni haqida batafsil to'xtalamiz.

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022 yil 22-avgust kunida korxonalarini toifalarga quyidagicha ajratilishini ta'rifladi.**

Bunda korxonalar yillik aylanmasi bo'yicha toifalarga ajratiladi.

**Kichik biznesni korxonasi** bo'lib yillik aylanmasi 10 milliard so'mgacha bo'lgani.

**O'rta biznes korxonasi** bo'lib yillik aylanmasi 100 milliard so'mgacha bo'lgani.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlari erkinlashuvi va takomillashuviga moslashuvini ta'minlash, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishning amaliy imkoniyati, zaruriy asoslari hamda strategik vazifalaridan kelib chiqib, respublikamizda kichik va o'rta biznes tadbirkorlikni yuksaltirishga birlamchi e'tibor qaratilib kelinmoqda va u amalga oshirilayotgan islohotlar tarkibida asosiy o'rinni egallab kelmoqda.

Kichik va o'rta biznes rivojlangan va rivojlanayotgan har qanday mamlakat iqtisodiyotida muhim ahamiyatga ega. Kichik va o'rta biznes sharoitga tez



## 2-TOM, 6-SON

moslashuvchanlik bilan ajralib turadi, uning faoliyatini yo'lga qo'yish katta miqdordagi dastlabki kapitalni talab qilmaydi. Kichik va o'rta biznes yirik biznes uchun qulay bo'lmagan sohalarda avj oladi. Kichik va o'rta biznes kichik bozorlarda faoliyat olib borish, mahalliy resurslardan foydalanish, ishsizlik muammosini xal qilish, mehnat unumdorligini oshirish, o'rta mulkdorlar qatlamini shakllantirish va ichki bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishda muayyan afzalliklarga ega. Kichik korxonalar odamlarda sohibkorlik, tadbirkorlik, mulkka egalik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, ularda ishbilarmonlik ko'nikmalarini hosil qilish va rivojlantirish vositasi hisoblanadi.

Kichik va o'rta biznes subyektlari deb o'rnatilgan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan va tadbirkorlik faoliyati yuritayotgan yuridik va jismoniy shaxslar tushiniladi.

2023 yilda O'zbekistonda ro'yxatga olingan Kichik va o'rta biznes korxonalarining soni 523,5 mingga yetdi. O'zbekistonda Kichik va o'rta biznes iqtisodiy va huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining kafolatlari to'g'risida" (1999-yil 14-aprel) va "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" (2000-yil 25-may) qonunlari bilan tartibga solinadi.

**O'zining "kichik va o'rta biznes"** degan nomiga qaramasdan ushbu ishlab chiqarish va tijorat faoliyati turi barcha taraqqiy topayotgan davlat iqtisodida muhim ahamiyatga ega.

Uning quyidagi afzalliklari mavjud:

*-moslashuvchanlik, ya'ni ishlab chiqilayotgan mahsulot assortimenti va turini o'zgartirishi kichik korxonalarda unchalik katta qiyinchiliklar tug'dirmaydi;*

*- kichik va o'rta biznesning iqtisodiy ustunligi mahalliy sharoitlarini yaxshi bilganlari sababli, ishlab chiqarishni uncha ko'p bo'lmagan kapital va mehnat xarajatlari bilan amalga oshirishidir;*

*-mahalliy resurslarda ishlab turgan yoki mahalliy bozorni ta'minlab turuvchi kichik korxonalar hech boim aganda transport xarajatlarining iqtisod qilinishi evaziga kam xarajatlidirlar;*

*-kichik korxonalarda mehnat sarfi kam, moddiy manfaatdorligi yuqori;*

*-ishlovchilarning kam sonligi, ularning har biri qobilyatining yengilroq yuzaga chiqishiga yordam beradi;*

**Kichik va o'rta biznes xo'jalik subyektlarining shakllari.**

*Kichik biznesning quyidagi shakllari mavjud:*

*- Huquqiy maqomi bo'yicha: jismoniy va yuridik shaxs maqomida;*

*- band bo'lgan hodimlar soni bo'yicha: yakka tadbirkorlik, mikrofirma, kichik korxon;*

*- mulkchilik shakli bo'yicha: xususiy, davlat, jamoa, aralash;*



## 2-TOM, 6-SON

- *faoliyat yo 'nalishi bo 'yicha*: ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik faoliyati;

- *tadbirkorlikning qanday vazifani bajarishga yo 'naltirilganiga qarab*: ishlab chiqarishni boshqarish, moliyalashtirish, vositachilik va maslahatchilikka qaratilgan tadbirkorlik;

- *faoliyat turlarining soni bo 'yicha*: bitta va ko'p tarmoqli tadbirkorlik;

- *faoliyat murakkabligi bo 'yicha*: maxsus bilim talab qilmaydigan, maxsus bilim talab qiladigan, yuqori texnologiyaga va nodir bilimga asoslangan tadbirkorlik;

- *faoliyatining tarmoq yo 'nalishi bo 'yicha*: sanoat, agrosanoat, qishloq xo'jaligi, savdo umumiy ovqatlanish, mashiy xizmat ko'rsatish, transport va aloqa, uy-joy va komunal xo'jaligi tijorat va moliya, ta'lim va fan, qurilish va boshqa xalq xo'jaligi tarmoqdagi tadbirkorlik.

Bugungi kunda O'zbekistonda kichik va o'rta biznes korxonalariga ko'plab imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Misol qilib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.06.2023 yildagi PQ-306 sonli qarorini ko'rsatish mumkin va bu tadbirkorlarga kredit olishda garov talab etilmasligi keng imkoniyatlar bermoqda.

### Xulosa

Mamlakatning kichik va o'rta biznes raqobatdoshligini oshirish, biznes tuzilmalardagi innovatsiyalarning roli, ahamiyatini teran anglanishi va raqobatbardoshlikka yo'naltirilgan maqsadli faoliyat, ilmiy hajmdor texnologiyalar, ishlanmalar va tajribakonstruktorlik ishlarituzilmalari yoki texnologiyalar transferi agentliklari yo'lga qo'yilishi bilan kechadi. Bugungi kunda kichik va o'rta biznes korxonalarini ish bilan ta'minlashda va daromadini oshirishda muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.09.2023 yilda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-306-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/-75878>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.11.2023 yilda "Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-193-son. <https://lex.uz/docs/-6658633>

3. O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan YAngi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60 sonli Farmoni

4. B.Y.Xodiyev, Sh.Sh.Shodmonov "Iqtisodiyot nazaryasi" darslik Toshkent.2017 y  
5. <https://Lex.uz/>

6. <https://cbu.uz/>

7. I.Salamov, T.Qudratov, I.Qudratova "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik" Ma'ruzalar kursi Samarqand.2015 y

8. <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/usreo-2>

